

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-dekabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi*

*Тел. 61-222-67-45*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2025- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **4 589** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **75** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 514** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **13 683,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,3** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **369,5** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **98,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **13 314,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **108,6** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 644,7** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **113,4** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>13 683,7</b>	<b>108,3</b>
Nukus shahri	3 494,5	108,4
tumanlar:	-	
Amudaryo	903,7	112,0
Beruniy	1 035,1	108,7
Bo'zatov	50,1	108,1
Qorao'zak	361,3	105,7
Kegeyli	306,0	105,2
Qo'ng'iro't	889,9	109,1
Qonliko'l	322,8	109,1
Mo'ynoq	126,5	111,0
Nukus	276,1	109,0
Taxiatosh	304,6	103,2
Taxtakopir	319,8	110,1
To'rtko'l	1 786,6	107,6
Xo'jayli	1 170,6	106,4
Chimboy	595,2	111,0
Shumanay	252,4	107,1
Ellikqal'a	800,3	109,4

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan respublikaning Amudaryo (**112,0** %), Chimboy (**111,0** %) Mo'ynoq (**111,0** %), tumanlari va Nukus shahrida (**108,4** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

*Ulushi, foizda*




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 25,5 % bilan 3 494,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bo'zator tumani 0,4 % bilan 50,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


*Hajmi, mlrd so'm*






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **13 314,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,6 %** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,3 %** ni tashkil etdi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **98,4 %** ni va **369,5** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **2,7 %** ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Nukus sh.	2,582663349	97,41733665
Amudaryo	2,085544512	97,91445549
Beruniy	3,322495075	98,87750493
Bo'zatov	0,689414326	99,91058567
Qorao'zak	0,331799067	99,88820093
Kegeyli	0,311830968	99,88816903
Qo'ng'iro't	2,262864521	97,78713548
Qonliko'l	0,059462337	99,94053766
Mo'ynoq	0,324479125	99,87552087
Nukus	0,216342507	99,78365749
Taxiatosh	23,05486766	76,94513234
Taxtako'pir	0,200781006	99,79921899
To'rtko'l	2,497334563	97,50266544
Xo'jayli	1,423319939	98,57668006
Chimboy	2,097144888	97,90285511
Shumanay	0,274954357	99,72504564
Ellikqal'a	1,998701374	98,00129863

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Nukus (99,8 %) va Qonliko'l (99,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 2,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (23,1%), Beruniy (3,3%), Nukus shahri (2,6 %) va To'rtko'l (2,5%) tumanlarida kuzatildi.




### Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda*




2024- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 786,9** ming so‘mni (2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **106,9%**) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (10 220,8 ming. so‘m), Xo‘jayli (9 046,6 ming. so‘m) va Taxtako‘pir (8 221,6 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (ozuq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-dekabr), foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	<b>Jami, mlrd so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 644,7</b>	<b>113,4</b>
Nukus shahri	245,7	125,7
tumanlar:		
Amudaryo	133,3	106,9
Beruniy	122,8	106,4
Bo'zatov	36,0	109,5
Qorao'zak	64,4	112,2
Kegeyli	93,0	107,0
Qo'ng'iro't	133,1	110,4
Qonliko'l	67,0	106,0
Mo'ynoq	20,5	105,4
Nukus	85,1	107,6
Taxiatosh	46,5	112,3
Taxtako'pir	55,6	102,4
To'rtko'l	210,7	118,5
Xo'jayli	101,0	120,1
Chimboy	128,1	120,9
Shumanay	37,8	107,7
Ellikqal'a	64,2	114,1

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-dekabr)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-dekabr)



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 644,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,4 %** ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 118,4** mlrd so'mni (**135,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **526,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**83,9 %**).




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 118,4** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**669,5** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>669,5</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>59,9 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>52,9</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>4,7%</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>109,8</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>9,8 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>45,2</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>4,0%</b>	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>25,3</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>2,3 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>42,2</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>3,8 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>28,4</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>2,5%</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>45,3</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>4,1%</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>31,7</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>2,8 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>32,8</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>2,9 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>35,3</b> <b>mlrd so'm</b>  <b>3,2%</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>-</b> <b>mlrd so'm</b> <b>- %</b>


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **526,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **438,2** mlrd so'm, qo'y va echkilar – **76,4** mlrd so'mni, otlar – **8,1** mlrd so'mni, parrandalar – **3,6** mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>219,5 mlrd so'm</b></p>  <p>41,7 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>113,9 mlrd so'm</b></p>  <p>21,6 %</p>	<p><b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>104,8 mlrd so'm</b></p>  <p>19,9 %</p>
---	---	--

<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>48,2 mlrd so'm</b></p>  <p>9,2 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>8,1 mlrd so'm</b></p>  <p>1,5 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>28,2 mlrd so'm</b></p>  <p>5,3 %</p>
--	--	---

<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>2,4 mlrd so'm</b></p>  <p>0,5 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>1,2 mlrd so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>- mlrd so'm</b></p>  <p>-%</p>
---	---	--

<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>- mlrd so'm</b></p>  <p>-%</p>
---



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 111 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 111 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>11 288,6</b>	<b>110,3</b>
Nukus shahri	204,0	87,2
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	20,5	105,1
Beruniy	15,7	99,4
Bo'zatov	1,3	171,9
Qorao'zak	11,9	161,3
Kegeyli	4,9	176,3
Qo'ng'iro't	108,5	177,1
Qonliqo'l	5,3	93,1
Mo'ynoq	2,0	261,7
Nukus	4,2	133,0
Taxiatosh	10,6	225,3
Taxtakopir	2,9	118,1
To'rtko'l	29,1	182,9
Xo'jayli	25,7	119,1
Chimboy	13,2	123,0
Shumanay	2,2	116,6
Ellikqal'a	10,8	115,1

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **11 288,6** mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **110,3%** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **99,9** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 431,9</b>	<b>100,0</b>
Nukus shahri	1 502,9	61,8
tumanlar:		
Amudaryo	35,5	1,5
Beruniy	626,8	25,8
Bo'zatov	1,7	0,1
Qorao'zak	3,2	0,1
Kegeyli	170,3	7,0
Qo'ng'iro't	3,3	0,1
Qonliko'l	14,7	0,6
Mo'ynoq	1,4	0,1
Nukus	0,2	0,0
Taxiatosh	14,0	0,6
Taxtako'pir	4,3	0,2
To'rtko'l	21,8	0,9
Xo'jayli	6,9	0,3
Chimboy	8,4	0,3
Shumanay	2,6	0,1
Ellikqal'a	14,1	0,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**1 502,9** mlrd so'm), Beruniy (**626,8** mlrd so'm) va Kegeyli (**170,3** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so‘m)




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) **2 431,9** mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **95,7 %** ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **805,2** mlrd so‘m (o‘sish sur‘ati – **71,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **2 995,5** mlrd so‘mni (o‘sish sur‘ati – **211,4%**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda




Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **6 757,0** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **11,8** % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **5 937,4** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **106,7** % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **87,9** % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2025- yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 588 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 582 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (108,0 %) va Taxiatoş tumanida (103,4 %) kuzatildi

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>6 757,0</b>	<b>111,8</b>
Nukus shahri	2 084,3	107,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	207,6	111,1
Beruniy	508,9	106,0
Bo'zatov	7,9	105,5
Qorao'zak	16,5	102,8
Kegeyli	26,8	101,0
Qo'ng'iro't	67,8	104,1
Qonliko'l	300,8	745,9
Mo'ynoq	360,3	104,8
Nukus	109,8	112,6
Taxiatoş	481,4	103,4
Taxtako'pir	69,1	111,3
To'rtko'l	686,9	109,0
Xo'jayli	187,2	106,4
Chimboy	225,6	107,0
Shumanay	23,1	108,7
Ellikqal'a	215,8	105,6